

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 78 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	



TIJORAT BANKLARIDA AHOLI OMONATLARINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA AMALIY YO'NALISHLARI

Xakimov Zoxid Norbo'tayevich

Mustaqil tadqiqotchi

ORCID ID: 0009-0008-2899-9473

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb qilish jarayoni tahlil qilingan. Jahon va mahalliy tajriba asosida omonat siyosatini takomillashtirishga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, psixologik va institutsional omillar yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida innovatsion omonat mahsulotlarini ishlab chiqish, raqamli xizmatlarni kengaytirish, mintaqaviy tengsizliklarni bartaraf etish va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: aholi omonatlari, tijorat banklari, O'zbekiston bank tizimi, moliyaviy savodxonlik, foiz siyosati, raqamli bank xizmatlari, psixologik omillar, iqtisodiy barqarorlik, innovatsion depozitlar, mintaqaviy tengsizlik

Abstract: This article analyzes the process of attracting household deposits to commercial banks in the Republic of Uzbekistan. Based on international and local experiences, the study highlights the economic, psychological, and institutional factors influencing deposit policies. The findings propose practical recommendations for developing innovative deposit products, expanding digital banking services, reducing regional disparities, and improving financial literacy to strengthen deposit mobilization.

Key words: household deposits, commercial banks, banking system of Uzbekistan, financial literacy, interest rate policy, digital banking services, psychological factors, economic stability, innovative deposits, regional inequality

Аннотация: В статье проанализирован процесс привлечения сбережений населения в коммерческие банки Республики Узбекистан. На основе международного и местного опыта освещены экономические, психологические и институциональные факторы, влияющие на депозитную политику. По результатам исследования даны практические рекомендации по разработке инновационных депозитных продуктов, расширению цифровых банковских услуг, устранению региональных дисбалансов и повышению финансовой грамотности для активизации привлечения вкладов.

Ключевые слова: сбережения населения, коммерческие банки, банковская система Узбекистана, финансовая грамотность, процентная политика, цифровые банковские услуги, психологические факторы, экономическая стабильность, инновационные депозиты, региональное неравенство.

KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda moliya institutlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri – aholining jamg'arma mablag'larini rasmiy bank tizimiga jalb qilish orqali iqtisodiyotning barqaror moliyaviy asosini mustahkamlashdan iborat bo'lmoqda. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Fondi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakunlariga kelib dunyo miqyosida omonat hisobvaraqlarida saqlanayotgan mablag'lar yalpi ichki mahsulotning (YalM) o'rtacha 55–60 foizini tashkil etdi [1]. Jumladan, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 70–85 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, ayrim rivojlanayotgan davlatlarda, xususan, Afrikaning past daromadli mamlakatlarida 15–20 foiz atrofida saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti ham ushbu jarayondan mustasno emas. So'nggi yillarda olib borilgan moliyaviy liberallashtirish, raqamli bank xizmatlarining kengayishi, banklararo raqobatning kuchayishi aholining omonat mablag'lariga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada oshirdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga kelib, tijorat banklaridagi aholi omonatlari hajmi 90,3 trillion so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 2,7 barobarga oshganini ko'rsatadi [2].



Shu bilan birga, aholining tijorat banklaridagi omonat mablag'larini yanada ko'proq jalb qilish, ularga yuqori jozibadorlik va daromadlilikni ta'minlash bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, banklar tomonidan moslashuvchan foiz siyosati yuritishni, innovatsion omonat turlarini joriy etishni va xizmat sifati bilan bog'liq islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ushbu maqolada tijorat banklarida aholining omonat mablag'larini jalb qilishdagi mavjud muammolar, ularni hal qilish yo'llari, shuningdek, xalqaro tajriba asosida jozibadorlikni oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon moliyaviy tizimidagi barqarorlik omillaridan biri sifatida tijorat banklarining omonat siyosatini takomillashtirish va aholining jamg'arma mablag'larini bank tizimiga keng jalb qilish muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, omonatlarning jozibadorligini oshirish nafaqat iqtisodiy omillar, balki psixologik, ijtimoiy va institutsional yondashuvlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Masalan, inson kapitaliga asoslangan qarashlar tarafdori J. Mincer va G. Psacharopoulos tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aholining ta'lim darajasi va daromad salohiyatining ortishi bilan bank omonatlari hajmi ham mutanosib ravishda o'sishi mumkinligi asoslab berilgan. Ularning fikricha, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar omonatlarni uzoq muddatli investitsiya sifatida qabul qilib, bank tizimiga nisbatan ko'proq ishonch bildiradilar.

Shunga o'xshash ilmiy natijalarga A. Lusardi va O. Mitchell tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ham erishilgan bo'lib, mualliflar moliyaviy savodxonlikning past darajasi omonat qilish xatti-harakatlarida sustkashlikka olib kelishini ta'kidlaydilar. Ular Global Financial Literacy Survey natijalariga tayanib, aholining moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi malaka darajasi to'g'ridan-to'g'ri ularning depozit qilishga bo'lgan moyilligiga ta'sir qilishini isbotlab berganlar. Ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda moliyaviy bilimlarning oshirilishi omonat hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank tizimi va jamg'armalarni shakllantirishdagi psixologik omillar esa Nobel mukofoti sovrindori R. H. Thaler tomonidan o'rganilgan bo'lib, u insonlarning moliyaviy qarorlarini baholashda an'anaviy iqtisodiy modeldan farqli o'laroq, ruhiy va hissiy reaksiyalar hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Xususan, "mental accounting" (aqliy hisob-kitob) nazariyasiga ko'ra, shaxslar pul mablag'larini maqsadga yo'naltirilgan "aqliy konvertlar"ga ajratib, omonat qilishni shaxsiy intizom va motivatsiya bilan bog'laydilar.

Bundan tashqari, D. Card va A. Krueger tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarida omonat siyosati va foiz stavkalari borasida xodimlar bilan olib boriladigan institutsional muloqot, ya'ni korporativ kommunikatsiya va ishchi-xodim ishonchi ham omonat siyosatining muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi muhim omillar qatorida qayd etilgan. Xodimlar o'zlarining pensiya rejalari va jamg'arma rejimlarini ishonchli banklar orqali boshqarishga intiladilar. Bu esa, bank imidji va mijozga nisbatan shaffof yondashuvning muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, K.A. Demirgüç-Kunt va H. Huizinga kabi Jahon banki tadqiqotchilari o'z izlanishlarida rivojlanayotgan davlatlarda bank tizimi orqali moliyaviy xizmatlarni kengaytirish, banklararo raqobatni kuchaytirish va omonatchilarga rag'batlantiruvchi paketlarni taklif etish orqali omonatlarni faol jalb qilish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ularning tahliliga ko'ra, depozit sug'urtasi, raqamli bank xizmatlari va past xarajatli tranzaksiyalar siyosati aholining bank tizimiga kirishini soddalashtiradi va bu orqali omonat bazasi kengayadi.

Yuqoridagi barcha ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, aholi omonatlarini bank tizimiga jalb qilishda klassik iqtisodiy vositalar bilan birga, moliyaviy savodxonlik, raqamli texnologiyalar, ishonch darajasi va psixologik motivatsiyalarning uyg'un yondashuvi zarur hisoblanadi. Shunday ekan, tijorat banklari o'z omonatchilarini ko'paytirish uchun murakkab va ko'p qirrali strategiyalarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalar va ilmiy asoslangan yondashuvlardan keng foydalanishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida tizimli tahlilga asoslangan yondashuvlar qo'llanilib, bir nechta metodologik usullar uyg'unlikda ishlatildi. Avvalo, taqqoslama (qiyosiy) tahlil usuli yordamida xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi aholi omonatlarini jalb qilish strategiyalari o'rganildi. Bu orqali turli davlatlarda amalda bo'lgan bank depozit siyosatining o'ziga xos jihatlari aniqlanib, ularning samaradorlik darajasi solishtirildi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, AQSh, Polsha kabi mamlakatlardagi omonat stavkalari, foiz siyosati, bank xizmatlarining raqamlashtirilganligi va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha O'zbekiston bilan farqlari tahlil qilindi.

Bundan tashqari, empirik tahlil usuli asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari, tijorat banklarining yillik hisobotlari, Jahon banki va Xalqaro Valyuta Fondi (IMF) ma'lumotlari asosida aholi omonatlari hajmi, dinamikasi va o'sish sur'atlari o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida 2020–2024 yillar davomida O'zbekistonda omonat mablag'lari o'sishining asosiy sababchi omillari va ularning bank tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri aniqlandi.



Shuningdek, kontent-tahlil (mazmuniy tahlil) usuli asosida ilg'or xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari, xalqaro ilmiy nashrlar, dissertatsiyalar va institutlar hisobotlari tahlil qilinib, ular asosida metodologik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, R. Thaler, A. Lusardi, K. Demirgüç-Kunt, F. Mishkin, D. Card kabi olimlarning omonatlar psixologiyasi, moliyaviy savodxonlik va omonatchilik xatti-harakatlariga oid ilmiy qarashlari asosida banklar faoliyatiga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda deduktiv tahlil usuli orqali mavjud nazariyalar va empirik ma'lumotlardan umumiy xulosalar chiqarildi hamda O'zbekiston bank tizimi uchun mos strategiyalar ishlab chiqildi. Metodologik yondashuvlarning uyg'unligi maqolada berilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar va tahlillarning dolzarbligini oshirdi.

Umuman olganda, maqola yozishda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar — qiyosiy tahlil, empirik ma'lumotlarga asoslangan o'rganish va nazariy kontent-tahlil — tadqiqot natijalarining puxta, asosli va amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minladi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida aholi omonatlarining 2020–2024 yillar oralig'idagi dinamikasi o'rganildi. Statistika shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortib borgan va bu omonatlar hajmida sezilarli o'sishni ta'minlagan. Jumladan, 2020-yilda 33,1 trillion so'mni tashkil qilgan omonatlar hajmi 2024-yilga kelib 90,3 trillion so'mga yetgan bo'lib, bu 2,7 barobarlik o'sishni anglatadi.

1-jadval. 2020–2024 yillarda tijorat banklarida aholi omonatlari, foiz stavkalari va inflyatsiya darajasi

Yil	Omonatlar hajmi (trln so'm)	Foiz stavkasi (%)	Inflyatsiya (%)
2020.0	33.1	17.5	11.4
2021.0	45.2	16.0	10.9
2022.0	61.7	15.0	12.3
2023.0	78.5	14.5	9.5
2024.0	90.3	13.8	8.6


Shu bilan birga, foiz stavkalari yildan-yilga pasayib borgan. 2020-yildagi 17,5% dan 2024-yilga kelib 13,8% ga tushgan. Bu banklar tomonidan raqobatbardosh bozor sharoitida narx siyosatini qayta ko'rib chiqish zaruratini anglatadi. Biroq, inflyatsiyaning ham pasayib borayotgani – 2020-yilda 11,4% dan 2024-yilda 8,6% gacha – aholining real daromadlarini saqlab qolishiga xizmat qilmoqda va omonat siyosatiga nisbatan ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.



1-rasm. Aholi omonatlari hajmining yillik o'sishi



Foiz stavkasi va inflyatsiya darajasi (2020–2024)



2-rasm. Foiz stavkasi va inflyatsiya darajasi

Diagrammalardan ko'rinib turibdiki, foiz stavkalarining pasayishiga qaramay, omonatlar hajmi muttasil oshib bormoqda. Bu holat aholining omonat qilishdagi asosiy motivlari faqat foiz daromadi bilan cheklanmasligini, balki bank tizimiga bo'lgan ishonch, xizmat sifati va moliyaviy savodxonlik kabi omillar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Ammo tahlil davomida bir qator muammolar ham aniqlangan:

Banklarning ko'pchiligi hali ham an'anaviy omonat turlaridan chetlashmagan.

Mintaqaviy bank xizmatlarida tengsizlik saqlanib qolmoqda.

Yoshlarda va past daromadli qatlamlar orasida moliyaviy savodxonlik yetarli darajada emas.

Shunday qilib, statistik ma'lumotlar va qiyosiy tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda aholi omonatlarini ko'paytirish uchun faqat foiz siyosatini emas, balki kompleks yondashuv – ishonch, texnologik qulaylik, moliyaviy bilimni oshirishga asoslangan strategiyalarni tatbiq etish talab qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining oxirgi yillardagi faoliyati tahlili shuni ko'rsatdiki, aholining moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchi ortib, bank omonatlarining hajmi sezilarli darajada o'sgan. 2020–2024 yillar davomida omonat mablag'larining uch baravarga yaqin o'sishi nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikning shakllanishi, balki moliyaviy xizmatlar sifati, xizmat ko'rsatish texnologiyalarining takomillashuvi va bank tizimining aholiga yaqinlashganligi bilan ham izohlanadi. Foiz stavkalarining pasayib borayotganiga qaramay, inflyatsiya darajasining izchil nazoratda saqlanishi aholining real daromadlarini saqlab qolishiga va omonat qilishga bo'lgan ishtiyoqning ortishiga xizmat qilmoqda.

Biroq, mavjud holat chuqur tahlil qilinganida, ayrim tizimli muammolar hali ham saqlanib qolayotganini ko'rish mumkin. Jumladan, ko'plab tijorat banklarida zamonaviy, segmentlashtirilgan omonat turlari hali ham to'liq joriy etilmagan, mintaqaviy moliyaviy xizmatlar darajasida tengsizlik mavjud, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyati barcha qatlamlar uchun bir xil emas, ayrim ijtimoiy guruhlar, xususan, yoshlar va past daromadli aholining moliyaviy savodxonlik darajasi esa yetarli emasligi kuzatilmoqda. Bu esa omonat mablag'larini yanada keng jalb etish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda.

Ushbu holatni inobatga olgan holda, tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qator amaliy yo'nalishlar tavsiya etiladi. Avvalo, innovatsion yondashuvga asoslangan depozit mahsulotlarini ishlab chiqish zarur. Pensiya, ta'lim, sog'liqni saqlash yoki muayyan maqsadlarga yo'naltirilgan tematik omonatlar omonatchilar uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, raqamli xizmatlar imkoniyatlarini yanada kengaytirish va soddalashtirish – mobil banking, masofaviy identifikatsiya, QR-to'lovlar orqali depozit ochish kabi texnologik yechimlar omonat jarayonini jadal va qulaylashtiradi.

Bank xizmatlarini hududiy va ijtimoiy nuqtai nazardan yanada inklyuziv qilish ham muhim. Ayniqsa, qishloq joylarda bank xizmatlariga kirish imkonini kengaytirish maqsadida ko'chma bank xizmatlari, infokiosklar, mini-bank filiallarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga



qaratilgan keng ko'lamli axborot-targ'ibot ishlari, o'quv seminarlari va interaktiv platformalarni yaratish orqali fuqarolar omonat qilish madaniyatiga jalb etilishi mumkin. Bu esa uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirish uchun faqat foiz siyosatini qayta ko'rib chiqish emas, balki kompleks, tizimli va innovatsion yondashuvga asoslangan strategiyalar zarur. Bank xizmatlarining sifati, texnologik qulayligi, omonatchilar bilan samarali kommunikatsiya yuritish va moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali bank tizimi real iqtisodiy o'sishning tayanch omilga aylanishi mumkin. Mazkur ilmiy asoslangan takliflar banklar faoliyatida joriy etilgan taqdirda, aholi jamg'arma madaniyatining yuksalishiga va moliyaviy resurslar bazasining mustahkamlanishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. (2024). World Development Indicators: Deposit accounts statistics. Retrieved from <https://databank.worldbank.org>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Bank tizimidagi omonatlar to'g'risidagi hisobot. Retrieved from https://cbu.uz/oz/press_center/reviews/
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Yillik hisobot 2023. Retrieved from <https://cbu.uz/upload/medialibrary/a53/Yillik-hisobot-2024.pdf>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2019). Banklarda omonat operatsiyalarini rasmiylashtirish jarayonlari takomillashtirildi. Retrieved from <https://cbu.uz/uz/documents/3332/37556/>
5. World Bank. (2025). Metadata Glossary: Depositors with commercial banks (per 1,000 adults). Retrieved from <https://databank.worldbank.org/metadataglossary/world-development-indicators/series/FB.CBK.DPTR.P3>
6. World Bank. (2025). Domestic credit to private sector by banks (% of GDP). Retrieved from <https://databank.worldbank.org/metadataglossary/world-development-indicators/series/FD.AST.PRVT.GD.ZS>
7. World Bank. (2025). Gross savings (% of GDP). Retrieved from <https://databank.worldbank.org/id/384adcf6>
8. World Bank. (2025). World Development Indicators: Financial Sector. Retrieved from <https://databank.worldbank.org/reports.aspx?Topic=3&source=2>
9. World Bank. (2025). World Development Indicators: Metadata Glossary. Retrieved from <https://databank.worldbank.org/metadataglossary/World-Development-Indicators/series%2Ccountry/page/4>
10. World Bank. (2025). World Development Indicators: Saving. Retrieved from <https://databank.worldbank.org/id/384adcf6>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>